

PAPER

SAMARQAND VILOYATIDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY VA EKOLOGIK AHAMIYATI

Choriyeva Nargiza Ibotovna¹, * and Polvanov Azim Kuchkarovich²

¹O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti

²Toshkent Arxitektura –Qurilish Universiteti ”O‘zbek va xorijiy tillar” kafedrası o‘qituvchisi

* choriyevanargiza257@gmail.com

Abstract

Mazkur maqolada zamonaviy sharoitda ekoturizmning barqaror rivojlanish omili sifatidagi o‘rni yoritilgan. Samarqand viloyatining tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati asosida ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida mahalliy aholi o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari asosida ekoturistik infratuzilmani yaxshilash zarurligi asoslab berilgan. Shuningdek, ekoturizmning hududiy iqtisodiyot, bandlik va ekologik muvozanatga ta’siri ilmiy jihatdan baholangan.

Key words:

ekoturizm, barqaror rivojlanish, Samarqand viloyati, ekologiya, turizm infratuzilmasi, mahalliy aholi.

Kirish

Bugungi globallashuv sharoitida iqtisodiy rivojlanish bilan atrof-muhitni muhofaza qilish o‘rtasida muvozanatni ta’minlash muhim vazifalardan biriga aylandi. Iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi va ekotizimlarning yemirilishi barqaror rivojlanishga xizmat qiluvchi yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Ana shunday yondashuvlardan biri sifatida ekoturizm

konsepsiyasi shakllanib, u tabiatni muhofaza qilish, aholining ekologik ongini oshirish va mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirishni o‘zida mujassam etadi.

Samarqand viloyati ko‘p asrlik tarixiy-madaniy merosi bilan bir qatorda, boy tabiiy resurslarga ham ega bo‘lib, ekoturizmni rivojlantirish uchun salohiyatli hudud hisoblanadi. Tog‘ oldi va qishloq hududlarining tabiiy manzaralari, an’anaviy turmush tarzi va ekologik maskanlari hududda

Compiled on: December 16, 2025.

Copyright: ©2025 by the authors. Submitted to *Advances in Science and Humanities* for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

turizmning yangi shakllarini shakllantirish imkonini beradi. Ushbu maqolada Samarqand viloyatida ekoturizmni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, mavjud muammolar va istiqbollari tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

G'arbdagi "ekoturizm" atamasi XX asrning 80-yillari birinchi yarmida meksikalik ekolog Ektor Ceballos-Laskurain (ispancha Hector Ceballos-Laskurain) tomonidan konferentsiyalardan birida rasmiy ravishda ishlatilgan. Bunda u dam olish va ekologiya o'rtasidagi uyg'unlik g'oyasini aks ettirish orqali shuhrat qozongan. Ekoturizm tabiiy imtiyozlardan oqilona foydalanishga asoslangan rekreatsiyaning faol shaklidir. Bu qulaylik, ommaviy kommunikatsiyalar, tobora ko'payib borayotgan sayyohlik tovarlarining mavjudligi va iste'mol qilinishidan voz kechishni o'z ichiga oladi (masalan, tur realizmidan farqli o'laroq, bu yuqori darajadagi qulaylikni saqlab, tabiat va madaniyatga sho'ng'ishni o'z ichiga oladi). Buning evaziga u tabiatni tafakkur qilish, u bilan muloqot qilishdan ma'naviy boyish, tabiiy merosni muhofaza qilish va mahalliy jamoalarning an'anaviy madaniyatini qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq bo'lgan boshqa qadriyatlar tizimini singdiradi.[1]

Natijalar

Zamonaviy jamiyat iqtisodiy rivojlanish va atrof-muhitni muhofaza qilish o'rtasidagi muvozanatni topish zarurati bilan duch kelmoqda. Iqlim o'zgarishi va ekotizim degradatsiyasi sharoitida tabiatni asrashga hissa qo'shadigan faoliyat shakllariga ehtiyoj bor. Ushbu shakllardan biri ekoturizm bo'lib, u o'zida ta'lim, dam olish va himoya funktsiyalarini birlashtiradi. Ekoturizm tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga qaratilganligi tufayli keng tarqaldi. Ommaviy turizmdan farqli o'laroq, u atrof-muhitga minimal ta'sir ko'rsatishga va turistik xizmatlar ko'rsatish jarayoniga mahalliy aholini jalb qilishga qaratilgan. Bu uni mintaqaviy rivojlanish uchun ayniqsa muhim vositaga aylantiradi. So'nggi o'n yilliklarda ekoturizm nafaqat yangi tajribalar izlayotgan sayyohlar orasida mashhur bo'lib qolmay, balki xalqaro tashkilotlar darajasida barqaror rivojlanish

strategiyalarining tan olingan elementiga aylandi. Bu biologik xilmaxillikni saqlashga yordam beradi, aholining ekologik madaniyatini oshiradi va mahalliy iqtisodiyotni rag'batlantiradi.

Shunday qilib, hududlarda ekologik turizmni rivojlantirish jamiyat, tadbirkorlik va tabiat manfaatlarini birlashtira oladigan istiqbolli yo'nalish hisoblanadi. Ekoturizm haqiqatan ham rivojlanishning barqaror omiliga aylanishining asosiy mexanizmlari va shartlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega.[2, B.287]

Samarqand uzoq yillar davomida tarixiy shahar sifatida sayyohlarni jalb etgan bo'lsa, endilikda turizmning boshqa yo'nalishlari, xususan, ekoturizmni rivojlantirish muhim masalaga aylanyapti. Buning bir necha sabablari bor. Birinchidan, tarixiy ob'yektlarni ko'rish, bir necha soat, boringki, bir kunda "bitadigan" jarayon. Sayyohlarning hududda ko'proq bo'lishiga erishish esa byudjet uchun ham, sayyohlarga xizmat ko'rsatuvchi mahalliy aholi uchun ham daromad nuqtai nazaridan juda muhim. Ikkinchidan, dunyoda zamonaviy turizmning eng muhim yo'nalishiga aylangan ekoturizm atrof-muhitni muhofaza qilishni taqozo etadi, biorang-baranglikni, tabiiy resurslarni saqlash va hatto kengaytirish, umuman ekologiya uchun beqiyos ahamiyatga ega. Shu bilan birga madaniy merosni ham asrash va mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirishda juda katta o'rin tutadi. Aholiga yangi ish o'rinlari yaratish va iqtisodiy rivojlanish imkoniyatini beradi. Sayyohlar tomonidan sarflanadigan mablag' o'sha hududni boy qiladi. Ekoturistik hududlarda infratuzilma yaxshilanishi bilan bir qatorda hudud aholisi mehmonxonalar, umumiy ovqatlanish, transport xizmatlari kabi qator sohalarda band bo'ladi.[3, 36]

Samarqandni chinakam noyob shahar, deb atash mumkin! Dunyoning eng buyuk shoir va faylasuflari uni - qalb bog'i, sharq durdonasi, dunyoning ko'zgusi va hatto yer yuzi deb atashganlarida ham, ular bu go'zal shaharning barcha go'zalligi va boyliklarini tasvirlab berolmagan bo'lardilar. Asrlar davomida bu shahar Buyuk Ipak yo'lining asosiy markazi bo'lib kelgan. XXI asr boshlaridoshlarida shahar YUNESKOning Umumjahon merosi ro'yxatiga "Samarqand - madaniyatlar chorrahasi" nomi bilan

kiritildi! Samarqand hammamizga ma'lum bo'lgan tarixiy, turistik, xushmanzara shaharlardan biri. Samarqand bir qancha yillardan beri turistlarning qadami arimiydi. Prezident Shavkat Mirziyoyev Samarqand tumanida Xalqaro turizm markazining ochilishiga bag'ishlangan bayram tadbirida ishtirok etdi, o'z nutqida Samarqand shahrining turizm salohiyati, turistlar oqimining ko'payayotganini ta'kidladi. "Bundan 3-4 yil oldin Samarqandga tashrif buyuradigan mahalliy va xorijiy turistlar soni 500 ming nafardan oshmas edi. Hozirgi kunda turizmni rivojlantirish bo'yicha islohotlarimiz, qulay investitsiyaviy muhit yaratish bo'yicha sa'y-harakatlarimiz tufayli Samarqandga kelayotgan xorijiy turistlar soni 2 barobar ko'paydi. Samarqand viloyatining chekka va tog' oldi tumanlari dagastronomik va eko turizm sohasiniyanada rivojlantirish va takomillashtirish lozim, chunki Samarqand viloyatining ayrim tumanlari o'zing tabiiy musofoligi va no odatiy turmush tarzi bilan kishilarni o'ziga jalb qilib kelmoqda.[4, B.8]

Ekoturizmning rivojlanishi ekologik maskanlar joylashgan qishloq hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi. Xizmat ko'rsatish sektorining rivojlanishi tadbirkorlik sub'ektlarini soni va ko'lamini kengayishiga, bu orqali ayollar va yoshlar bandligi hamda daromadlarini oshishiga sabab bo'ladi. Samarqand viloyatida ekoturizmning rivojlanish dinamikasini tahlil qilar ekanmiz, 2020 yili keng tarqalgan koronavirus pandemiyasi ekoturizmning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Samarqand viloyati qishloq hududlarida joylashgan tabiiy maskan-lardan betartib va haddan ortiq foydalanish, mulk munosabatlarining tartibga solinmaganligi ushbu maskanlarning yemirilishiga olib kelib, ularga uzoq muddatli investitsiyalar kiritish, qayta tiklash va yaxshilash tadbirlarini amalga oshirishga bulgan rag'bat va manfaatlarni shakllantirishga tusiqlik bulib kelmoqda. Tadqiqotimiz davomida biz Samarqand viloyatida eko-turizm xizmatlaridan olingan daromad dinamikasini o'rgandik. Biz tadqiqotimiz davomida 158 nafar turli yoshdagi mahalliy aholidan Samarqand viloyatida eko-turizm maskanlarida shartsharoitlarni baholash bo'yicha so'rovnoma o'tkazdik. Ushbu o'tkazgan so'rovnoma natija-lariga ko'ra

ekoturizmga bo'lgan qiziqish yuqori ekanligi hamda Samarqand viloyatida mavjud ekoturistik maskan-larda turizm sharoitlarni yaxshilash ustida ishlar olib borish zarurligi, ekoturizm infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha yirik investitsion loyixalarni amalga oshirishni taqozo etilishi aniqlandi.[5, B.308]

Samarqand bugungi kunda sayyohlarni nafaqat bir necha asrlik tarixiy obidalar bilan, balki betakror tabiat manzaralaridan zavq olib, mazmunli dam olish, sayr qilish, milliy urf-odat va an'analar bilan yaqindan tanishish, sharq shirinliklari, sarxil meva-sabzavot va bog'dorchilik mahsulotlaridan tatib ko'rish, sharqona bozorlarda xaridlarni amalga oshirish, muqaddas qadamjolarini ziyorat qilish, davolanish va boshqa imkoniyatlar mavjudligi bilan o'ziga rom etmoqda, – deydi Samarqand viloyati turizmni rivojlantirish departamenti boshlig'i Dilshod Narziqulov. – Ayni paytda viloyatimizda 541 ta turistik ob'yekt, 157 ta turoperatorlik sub'yekti mavjud. Bir vaqtning o'zida 6100 nafar mehmonni qabul qilish imkoniyatiga ega 131 ta mehmonxona va 93 ta mehmon uyi faoliyat ko'rsatmoqda. 209 ta turistik sinfga mansub avtotransport vositalari, 230 nafar hamroh-tarjimonlar sayyohlarga xizmat ko'rsatmoqda.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Samarqand viloyatida ekoturizmni rivojlantirish kompleks yondashuvni, ekologik me'yorlarga asoslangan boshqaruvni va yirik investitsion loyihalarni amalga oshirishni talab etadi. Ushbu yo'nalish hududning turistik jozibadorligini oshirish bilan birga, jamiyat, iqtisodiyot va tabiat manfaatlari uyg'unligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. AHTAMOVA M. Samarqand viloyatida ekologik turizmni rivojlanish tendentsiyalari. Jamiyat va innovatsiyalar – Obşestvo i innovatsii – Society and innovations Special Issue – 9 (2021) / ISSN 2181-1415, B.308-309
2. Kobiljonov M. EKOLOGIK TURIZM HUDUDLARNING BARQAROR RIVOJLANISH OMILI. Acumen: International Journal of

Multidisciplinary Research.B.287

3. Artikova Sh. Qurbonov T, Shodiyev F. EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI. VOLUME 2, ISSUE 8 (December) ISSN: 2181-3000 Page 4/36, B.4/36
4. <https://zarnews.uz/uz/post/ekoturizm-nima-uchun-sayyohlikning-eng-muhim-yonalishi-hisoblanadi>.
5. Juraqulova. F. SAMARQAND VILOYATIDA GASTRANOMIK VA EKO TURIZM RIVOLANTIRISH ISTIQBOLLARI (CHOR CHINOR ZIYORATGOHI MISOLIDA). SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI 6-JILD 6-SON RESPUBLIKA ILMIY-USLUBIY JURNALI, B.8